
“KEKSALAR HAFTALIGI” KO’TARINKI RUHDA O’TMOQDA



“Keksalar haftaligi” doirasida Qo’shtepa tumanidagi 20-IDUMning ijodkor o’quvchilari Shodlik MFY, Mevazor ko’chasida istiqomat qiluvchi Rahmatjonova O’g’ilxon onaxonning holidan xabar olishdi.

O’g’ilxon ona 20-maktabda ko’p yillar mobaynida faoliyat olib borib, hozirgi kunda o’g’il-qizlari va nabiralar e’zozida yashab kelmoqda. Onaxon o’quvchilarning kutilmagan tashrifidan juda hursand bo’ldi. Qo’llarini duoga ochib, tinch va osuda hayotimizga shukronalar aytdi. Bolajonlarni kelajakda el-yurtga nafi tegadigan farzand bo’lishlariga tilak bildirdi.



Ijodkor o’quvchilar ham o’z navbatida ona, ayol va qariyalarni qadrlash haqidagi she’rlaridan aytib berishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-06 09:19:35